

SOFOKLNING “SHOH EDIP” TRAGEDIYASIDA BASHORAT VA TAQDIR.

Olimjonova Dilnavoz

Farg‘ona davlat universiteti, Filologiya fakulteti talabasi

Ahmadjonov Ilhomjon

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqola qadimgi yunon dramaturgi Sofoklning “Shoh Edip” tragediyasida asosiy falsafiy muammolardan biri bo‘lgan taqdir va inson mas‘uliyati, insonning o‘z taqdiridan qochib qutula olmasligi, haqiqatni izlash jarayoni va uning fojeali oqibatlari tahlil etiladi. Shuningdek, insonning o‘z hayoti ustidan nazorati, taqdirga qarshi kurashi hamda o‘z qilmishlari uchun javobgarligi masalalari chuqur yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Taqdir, mas‘uliyat, fojea, Shoh Edip, bashorat, inson.

Abstract: This article analyzes one of the central philosophical problems in the tragedy “Oedipus Rex” by the ancient Greek playwright Sophocles: fate and human responsibility, the inability of humans to escape their fate, and the process of searching for the truth with its tragic consequences. Furthermore, the article delves deeply into issues concerning human control over their own lives, the struggle against destiny, and responsibility for one's own actions.

Keywords: Fate, responsibility, tragedy, Oedipus Rex, prophecy, destiny.

Qadimgi yunon adabiyotida tragediya alohida ahamiyatga ega. Tragediya janri inson hayotidagi murakkab hamda fojeaviy holatlarni aks ettirishda muhim o‘rin tutadi. Sofokl “Shoh Edip” tragediyasida insonning hayot va taqdir oldida ojizligi, otasining o‘limiga sababchi bo‘lgan o‘g‘il kabi muammolarni yorqin ifodalaydi.

“Shoh Edip” tragediyasi Fiva shahrida yuz bergan balo va ofatlar xususida rivojlanadi. Asarda taqdir markaziy o‘rin egallaydi. Edip tug‘ilishidan oldin uning otasini o‘ldirib, onasiga uylanishi haqidagi dahshatli bashorat beriladi. Tragediyaning asosiy g‘oyasi xudolar tomonidan belgilangan taqdirning muqarrarligi hisoblanadi.

Bu asarda tush va bashorat mativi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tush motivi — badiiy adabiyot va folklorda qahramonning ruhiy holatini ochib berish, kelajakdan bashorat qilish yoki asar syujetini keyingi bosqichga o‘tkazish uchun xizmat qiladigan eng qadimiy tasviriy vositalardan biridir.

Bashorat motivi (yoki avliyolik, oldindan ko‘ra bilish) — badiiy adabiyot va folklorda voqealar rivojini oldindan aytib berish, qahramon taqdiridagi muhim o‘zgarishlarni ko‘rsatish va asar syujetini mantiqiy yakunga tayyorlash uchun xizmat qiladi. Bu motiv tush motivi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, u ko‘pincha g‘oyibdan kelgan ovoz, avliyo yoki dono qariyaning so‘zlari orqali namoyon bo‘ladi.

Kohinning Edip haqidagi bashorati: “O‘z otangni o‘ldirasan va onangga uylanasan” – asar syujetining ustuni hisoblanadi. Edip qanchalik harakat qilmasin, Korinfni tark etib, ota-onasi deb bilgan insonlardan qochmasin, u aynan taqdir yo‘naltirgan yo‘ldan boradi.

“Shoh Edip” fojiasining eng dahshatli tomoni – Edip otasi Layni tanimay o‘ldirishi hamda onasi Iokastaga uylanishidir. Yillar o‘tib mamlakat boshiga turli xil ofatlar yog‘ila boshlaydi. Edip bu falokatlarning sababi marhum podshoh Layning qotili jazolanmaganligi ekanini bashoratchilardan biladi.

U qotilni izlash davomida hech bir voqeani nazardan qochirmaydi, ma’lumotlar va dalillarni sinchiklab o‘rganadi. Korinfdan kelgan elchidan otasi Polib o‘z ajali bilan o‘lganini bilib, bashorat amalga oshmaganidan xursand bo‘ladi. Ammo Iokastaning gaplari uning taqdiri bilan mos tushayotganidan qo‘rquvga tushadi.

Axiri Edip hamma haqiqatni anglab yetadi: u o‘z otasini o‘ldirib, onasiga uylanganligini tushunadi. Buni anglagan Iokasta o‘z joniga qasd qiladi. Shoh Edip esa o‘z aybini tan olib, o‘zini jazolaydi. U ko‘zlarini o‘yib tashlaydi. Bu uning yuqori darajadagi axloqiy mas’uliyatini ko‘rsatadi.

Demak, Edip nafaqat taqdir qurboni, balki o‘z qarorlari uchun javobgar inson sifatida ham namoyon bo‘ladi. Hozirgi davr uchun asardan shunday xulosa chiqarish mumkin: Edip — bu shunchaki qadimiy afsona emas, balki har bir davrda o‘zining kimligini anglashga intilayotgan, xatolarini mardona tan oladigan va taqdir sinovlariga tik qaraydigan har bir insonning aksidir. “Shoh Edip” tragediyasi inson hayotida muqarrarlik va tanlov o‘rtasidagi ziddiyatni chuqur yoritib bergan. Taqdir oldindan belgilangan bo‘lsa ham, inson o‘z qarorlari uchun javobgardir. Eng muhimi esa uni qanday qabul qilish va qanday saboq chiqarishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sofokl. "Shoh Edip" (Tragediya). Rus tilidan Asqad Muxtor tarjimasini. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979.

2.Aristotel (Arastu). "Poetika" (yoki "She‘r san‘ati haqida"). Ushbu asarda "Shoh Edip" tragediyaning eng mukammal namunasi sifatida tahlil qilingan.

3.Ziyouz.com kutubxonasi: Jahon adabiyoti durdonalari va Sofokl ijodi bo‘yicha ma’lumotlar.